



# SEVEN STAR

CONFERENCE



collection of scientific works of the international  
"Seven Star II" Online Conference.

---

5-6 DECEMBER  
2020

TASHKENT, UZBEKISTAN





The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated **International Online Conference "SEVEN STAR"**. Which took place on ZOOM Meeting Platform, 5-6th December, 2020.

**Languages of publication:** uzbek, Russian, English and Karakalpak

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

5-6 DECEMBER  
2020

TASHKENT, UZBEKISTAN



# MAKTAB BOLALARIGA INGLIZ TILINI O`QITISHDA YANGICHA METOD

**Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi**

FayzullayevaMadina007@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika institutining chet tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti  
yo'nalish III bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab bolalarga chet tilini o'rgatishning intellektual, zamonaviy metodlar orqali ta'lim sifatini oshirish haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bolalarga chet tilini o'rgatishni yanada osonlashtirish yo'llari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, ilg'or uslublar, intervallik takrorlash, til o'rganish

**Аннотация:** В данной статье обсуждается, как повысить качество образования с помощью интеллектуальных, современных методов обучения иностранных языков школьникам. Говорят также о том, как облегчить детям изучение иностранного языка.

**Ключевые слова:** иностранный язык, продвинутый стиль, интервальное повторение, изучение языка

**Annotation:** This article discusses how to improve the quality of education through intellectual, modern methods of teaching foreign languages to school children. There is also talk of ways to make it easier to teach a foreign language to children.

**Keywords:** foreign language, advanced style, interval repetition, language learning

Bugungi hayotimizni chet tillarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Bugun har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo'lish uchun biror bir tilni bilish oddiy

talabga aylanib qoldi. Shuning uchun ham hozirgi zamonaviy hayotda hamma biror tilni o'rganish bilan mashg'ul. Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 Qaroriga muvofiq mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratilgani ham xususan, chet tillarni rivojlanishiga ancha turtki bo'ldi.

Ushbu qarorda chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayotgani, ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilayotgani tanqid qilindi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etishi haqida ham fikr yuritildi. Shuningdek, qarorda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ham ko'zda tutilgan.

Yangi tilni o'rganish dunyoga yangi dunyoqarash va yangicha fikrlashdir. Shu sababli ham, inson qanchalik ko'p tilni bilsa, shuncha dunyoqarashi keng bo'ladi. Shuningdek, har qanday tilga bo'lgan qiziqish o'sha tilni tezroq o'rganilishiga turtki bo'ladi.

Yosh maktab o'quvchilarida olingan bilimni yaxshi eslab qolish hamda unutish holatlari juda ko'p uchraydi. Bu omilarga sabab darslarning 45 minutdanligi hamda choraklar orasidagi ta'tillar sababchi bo'ladi. Bolalarga avval o'tilgan bilimlarni takrorlash, uy vazifalarini tekshirish va o'tiladigan yangi mavzuni tushuntirish uchun avvalo 45 minut kamlik qiladi, qolaversa, 1-2 oy davomida o'rgatilgan ma'lumotlarni takrorlamay yurish natijasida 1-2 haftalik chorak ta'tillar natijasida olingan bilimni yoddan chiqarish holati uchraydi.

Tadqiqotlarga ko'ra, inson o'rgangan bilimni 7 kun o'tgach, olingan bilimning 75% yodidan chiqar ekan. Intervallik takrorlash yo'li olingan bilimni uzoq vaqt yodda saqlashga ancha yordam beradi. Bu usulda ma'lum yangi so'zlarni yoki olingan bilimni kundan kunga uzayib boradigan oraliqda takrorlash kerak bo'ladi. Bu usulni qo'llash uchun bolalar ota-onasining ham yordami kerak bo'ladi, albatta.

Ma'lumki, tilni xar hil o'yinlar orqali qiziqish bilan o'rgantish kerak. Shundagina xotirada yanada yaxshi saqlanib qolishi mumkin. Masalan, bolalarga chet tili o'rgatishda "Tugallanmagan taklif" texnologiyasini ham ancha samara beradi. Bolalarga tugallanmagan jumlaning berish va uni har qanday so'zlar bilan tezda davom ettirishi kerak bo'ladi, shuning uchun bolalar uni tugatish uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarga ega. Ular hayotning turli sohalariga tegishli va har qanday mavzuni yoritishi mumkin.

Yana bir usul shuki, har bir o'quvchi allaqachon boshlangan voqeaga bitta jumla qo'shadi. Ma'lum bir vaqtdan keyin tugallanmagan hikoyali varoq keyinchalik aylana bo'ylab uzatiladi. O'qituvchi muayyan tartibda savollar beradi, jarayonning har bir ishtirokchisi javob yozadi, hech kim uni ko'rmasligi va uni boshqa o'quvchi ko'rmasligi uchun qog'oz varag'ini qatlaydi. Harakat aylana shaklida amalga oshiriladi. Shunday qilib, oxirida bir nechta kutilmagan ajoyib hikoya hosil bo'ladi. Shuningdek, o'quvchi ham til o'rganishga qiziqishi, moyilligi bo'lishi kerak. Shunda o'qituvchi muntazam ravishda o'quvchi qiziquvchanligini oshirib boradi,

bilim beradi, shundagina ustoz va shogird usulida faollikni oshirish mumkin bo'ladi.

O'quvchi bolalarning chet tilida o'qish tajribasini oshirish uchun ularga berilgan matnlarni o'qib, mazmunini chuqur tushunishi, shu matn yuzasidan fikr almasha olishi lozim ya'ni berilgan matnlarda nima uchun aynan shu so'z qo'llanilganini so'rasangiz, bemalol ayta oladigan darajada tushunishi zarur. Shuningdek, darslik kitoblari yagona bilim manbasi bo'lmasligi lozim. Internet tarmoqlari yordamida chet tillarini o'rgatishda juda ko'p mavjud saytlardan samarali foydalanish ham mumkin. Bunday texnologiyalar ta'lim tizimida o'z aksini topishi uchun, asta-sekin, bosqichma-bosqich o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida qo'llash va ulardan oqilona foydalanishga harakat qilish kerak bo'ladi.

Ko'pchilik til o'rganuvchilar xato gapirishdan qo'rqishadi. Bolalarni xato gapirishlariga bemalol qarash kerak. Shuningdek, gaplarini qaysi joyida xato qilishganini o'zlari topishlariga imkon berish kerak, agar shu vaziyatda ham o'z xatosini topa olmasa, o'qituvchi boshqa tengdoshlaridan so'rashi kerak. Bolalar oddiygina gaplarni xatosiz tuza olishini tez-tez rag'batlantirib borish kerak.

Bolalarga vaqti-vaqti bilan qiziqarli videolar qo'yib bering. Videoni bir marotaba ko'rganidan keyin, ikkinchi bor yana boshqatdan qo'yib bering. Bu gal videoda nima deyayotganini orada to'xtatib so'rang.

Chet tilda gapirishni rivojlantirish uchun yangi so'zlarni avval yodlagan so'zlariga sinonim so'zlar bilan yodlatish ham yaxshi samara beradi. Shuningdek, bolalarning o'zlari uchun juda qiziqarli bo'lgan biror mavzuni presentatsiya qilish orqali ham chet tilda gapirishni ancha o'stirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda respublikamizdagi maktablardagi o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish yangi pedagogik texnologiyalar, texnik hamda axborot kommunikatsiya vositalari bilan qurollantirishni taqozo etadi. Maktab o'quv dasturlarini, darsliklarini yangi pedagogik texnologiyalar bilan

boyitish va ularni ta'lim tizimida joriy etish o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qarorlar. Old.president.uz
2. www.hasanboy.uz
3. O'zbekistonda chet tillarni o'qitish muammolari. Ular qanchalik jiddiy?  
daryo.uz.

## TABLE OF CONTENTENTS

Asqarova Sitora Baxtiyor qizi “Axboriy publitsistika janrlari”.....	450
Jo’raqo’ziyeva Mahmudaxon Ismoiljon qizi “Arab tilida buyruq maylining ishlatilishi”.....	454
Rasulova Zebiniso Xakim qizi “TEACHING ARABIC LETTERS: ANALYSIS AND SOLUTION”.....	459
ALLAYOROVA NIGORA “ZAMONAVIY TA’LIMDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI”.....	464
Mirzayeva Xumora Maxmud qizi “FRENCH ADVERBS AND EXPRESSIONS OF TIME, FREQUENCY, AND LOCATION”.....	468
D.M.Yulchiyev “LITERATURE GUIDE BETWEEN YOUNG PEOPLE THE RESULT OF THE PROCESSES WHICH STUDY IMPORTANT CHANGES AND INCREASE THE WORD AND METHODOLOGY”.....	472
Abdumannonov Khojiakbar Akmaljon ogli “A GLANCE AT THE “KHUZDUL” LANGUAGE CONSTRUTED BY J.R.R. TOLKIEN”.....	476
Dilbarxon Shokirova “XALQARO TADQIQOTLARDA O`QUVCHILARNING O`QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH YUZASIDAN ONA TILI VA ADABIYOT FANI DARSLARINI TASHKIL ETISHGA OID TAVSIYALAR”.....	481
Mirsamadova Sevara Erkinovna “O‘zbekiston yoshlari buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi”.....	485
Axmadaliyeva Nilufar Qobuljon qizi “THE PENETRATION OF THE PAPER INTO UZBEKISTAN AND THE SAMARKAND PAPER”.....	491
Egamberdiev Oyatillokh Alisher ogli “PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHERS”.....	498
Mustafayeva Mehrinigor Abdug‘ani qizi “IMOM TERMIZIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI”.....	504
Qazaqova Sarvinoz Jahongirovna “Bolalar adabiyoti”.....	510
Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi “MAKTAB BOLALARIGA INGLIZ TILINI O`QITISHDA YANGICHA METOD”.....	514
Fozilova Madinabegim “Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi...519	